

Mirzayev To‘ra

Filologiya fanlari doktori, professor

E-mail: uzlit@uzsci.net

Tel.: (99871) 233-79-13

Lavozimi: O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklori bo‘limi mudiri

Ilmiy unvon: professor

Ilmiy daraja: filologiya fanlari doktori

Ilmiy qiziqish: o‘zbek folklori masalalarini o‘rganish

Asosiy ilmiy ishlari

Monografiyalar:

1. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: Sharq, 2010. 400 bet. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi.
2. Aromat rassvetayushix roz. Folklor i literaturniye pamyatniki Uzbekistana. – M.: Xudojestvennaya literatura, 2011. 696 s. So‘zboshi va izohlar muallifi hamda tuzuvchilardan biri.
3. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. Fozil shoir varianti. – Toshkent: O‘zbekiston. – ARTFLEX, 2011. 392 bet. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi.
4. Alpomish. Po‘lkan shoir varianti matni. – Toshkent: Tamaddun, 2011. 248 bet. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi.
5. Go‘ro‘g‘li. Dostonlar. – Toshkent: Tamaddun, 2011. 236 bet. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi.
6. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012. 512 bet. So‘zboshi muallifi va tuzuvchilardan biri. Qayta nashri: 2013, 2014.
7. Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS ASA, 2013. 382 bet.

Ilmiy maqolalar:

1. Ulkan salohiyat sohibi. – “Buxoro mavjlari”jurnali, 2010-yil, 1-son, 22–24-betlar (I.Haqqul, M.Jo‘rayev bilan hamkorlikda). Shu maqola kengaytirilgan holda “Folklorshunoslik masalalari” kitobida. – Toshkent: Fan, 2010. 3–10-betlar.
2. O‘zbek folklorida lapar. – “Folklorshunoslik masalalari. kitobida. – Toshkent: Fan, 2010. 49–54-betlar.
3. O‘zbek folklorshunosligi taraqqiyotida Komiljon Imomovning o‘rni. – “O‘zbek folklorshunosligi masalalari”. to‘plamida. – Toshkent: Fan, 2010. 3–12-betlar (M.Jo‘rayev bilan hamkorlikda).

4. Ilmiy-ijodiy halollik tamoyillari. – “O‘zbek folklorshunosligi masalalari” kitobida. – Toshkent: Fan, 2010. 102–116-betlar.
5. Adabiy sarchashmalar bilimdoni. – “Sobitlik” kitobida. – Toshkent: Milliy kutubxona nashriyoti, 2010. 82–85-betlar (M.Jo‘rayev bilan hamkorlikda).
6. Poslesloviye. – M.Abduraximovning “Yantarniye chetki” kitobiga so‘ngso‘z. – Toshkent: Akademnashr, 2010. 396–402-betlar.
7. Daraxt bir joyda ko‘karar. – A.Musaqulovning “O‘zbek xalq lirikasi” monografiyasiga so‘zboshi. – Toshkent: Fan, 2010. 3–8-betlar.
8. Poeticheskoye svoyeobraziye uzbekskogo dastana Alpamish. – “Aktualniye problemi izucheniya, vozrojdeniya i razvitiya traditsionnoy kulturi tyurkoyazichnix, vostochno-slavyanskix i finno-ugorskix narodov” kitobida. – Ufa: Vagant, 2011. S.270–280.
9. O‘zbek xalq lirikasining yirik tadqiqotchisi. – “O‘zbek folklorshunosligi masalalari” to‘plamida. – Toshkent: Fan, 2011. 3–8-betlar (M.Jo‘rayev bilan hamkorlikda).
10. Mavjlanadi ming marjon. – Y.Muqimovning “Otalar so‘zi” kitobiga so‘zboshi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2012. 6–8-betlar.
11. Ulkan merosning jilolari. – “Navbahorda gul kabi” to‘plamiga so‘zboshi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2012. 3–4-betlar.
12. Omonulla muallim. – “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi, 2012, 18-may (SH.Turdimov, J.Eshonqul bilan hamkorlikda).
13. Til ilmi va ta‘limining fidoyisi edi. – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2012-yil, 5-son. 104–107-betlar.
14. Baxshilar epik repertuarining shakllanishi va boyib borishi masalalariga doir. – “XX asr o‘zbek adabiyoti masalalari” kitobida. – Toshkent: Fan, 2012. 42–48-betlar.
15. G‘ozi Olim Yunusov. – “Sharq yulduzi” jurnali. 2012-yil, 6-son. 35–43-betlar.
16. Ustozlardan biri edi. – “Fattoh Abdullayev zamondoshlari xotirasida” kitobida. – Toshkent: Muharrir, 2013. 52–59-betlar.
17. Obodlik va bunyodkorlik bayrami. – “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi, 2013-yil. 21-mart.

Xalqaro konferensiyalar: Folklor masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab xalqaro konferensiyalar ishtirokchisi (Rossiya, Turkiya, Germaniya, Yaponiya, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston)

Bugungi kunda o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodini to‘plash, nashr etish va tadqiq etish borasida ulkan ishlarni amalga oshirib kelayotgan O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limining tashkiliy negizlari o‘zbek folklorshunosligining asoschisi H.T.Zarifov tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan 1928-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi ilmiy sho‘rosining O‘zbeklarni o‘rganish komiteti huzuridagi Etnografiya, folklor va arxeologiya bo‘yicha ilmiy-tekshirish kabinetidan boshlanadi. 1929-yilning

dekabrida H.T.Zarifov mudir bo'lgan bu kabinet yangidan tashkil etilgan O'zbekiston davlat ilmiy-tekshirish instituti ixtiyoriga mustaqil (alohida) tuzilma sifatida beriladi (1929-1931).

Ammo O'zbekistonda folkloristik ishlar mazkur kabinet tashkil etilishidan ancha ilgari boshlangan edi. Folklorga adabiy munosabatda bo'lish badiiy, ilmiy va tarixiy asarlarda (masalan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Abu Rayhon Beruniyning "Osor-ul boqiya", Alisher Navoiyning "Mezon-ul avzon", Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy", Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi asarlari) undan foydalanish qadimdan an'ana bo'lib kelar edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mahalliy ziyolilar va xorijiy sharqshunoslarning tashabbuslari bilan ayrim to'plamlar va xalq dostonlarining litografik nashrlari chop etildi, vaqtli matbuotda xalq ijodiyotiga doir ayrim maqolalar, topishmoq, maqol, ertak, afsona va rivoyatlar nashr etildi. H.Vamberi nashr etgan "Chig'atoy tili darsligi" (1867), "Yusuf bilan Ahmad" dostoni (1911), N.P.Ostroumov to'plamlari (1895, 1906), "Hikoyati Go'ro'g'li sulton" (1875), "Jumboq majmuasi" (1916), Ibrohim Davronning "Madaniy jumboqlar"i (1916), "Turkiston viloyatining gazetasi", "Turkestanskiye vedomosti", "Samarkand" gazetalarida e'lon qilingan ayrim maqolalar, folklor namunalari va boshqalar shular jumlasidanrdir. Hatto "Maorif" jurnalining 1-sonida (1918) xalq ijodi namunalari to'plash uchun savodli kishilarga murojaat qilinib, qo'llanmanamo bir maqola ham bosilib chiqqan edi. Keyinroq folkloristik va etnografik ishlar Turkiston Maorif xalq komissariati Turkiy sho'basini (1918-1920), Davlat ilmiy kengashining O'zbek milliy bilim hay'atida (1921-1924) markazlashtirildi.

XX asrning 20-yillari boshlarida sharqshunos olim P.Falev o'zbek xalq qo'shiqlarini to'pladi. Musiqashunos olimlar V.Uspenskiy, N.Mironovlar bolalar qo'shiqlarini fonografda yozib oldilar. "O'zbek bilim hay'ati"ning raisi Elbekning Bo'stonliq tumaniga (1921), hay'at a'zolari G'ozi Olim Yunusovning Sirdaryo va Samarqand viloyatlariga (1922), G'ulom Zafariyning Farg'ona vodiysiga (1921-1922) ekspeditsiyalari uyushtirildi.

XX asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlab folkloristik ishlarga O'zbekiston Maorif xalq komissarligi ilmiy sho'rosining O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi (1922-1929) bosh-qosh bo'ldi. G'ozi Olim Yunusov, Hodi Zarif, Abdulla Alaviy kabi olim va shoirlarning tashabbusi bilan Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Nurmon Abduvov o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla shoir Nurali o'g'li, Xolyor Abdukarim o'g'li, Do'styor Xo'jayor o'g'li kabi atoqli dostonchilar aniqlandi. 1925-yilning oxirlaridan boshlab an'anaviy dostonlarning to'la matnlarini yozib olish ishlari boshlandi.

Etnografiya, folklor va arxeologiya bo'yicha ilmiy-tekshirish kabineti ikki yirik kompleks ekspeditsiya – 1929-yilda Qashqadaryo va Surxondaryo vohalariga, 1930-yilda Xorazm viloyatiga dialektologiya, etnografiya va folklor

ekspeditsiyalarini uyushtirdi. Bu ekspeditsiyalarda professor G.O.Yunusov (ekspeditsiya boshlig'i),

Professor YE.D.Polivanov, kabinet mudiri H.T.Zarifov, etnograf L.P.Potapov, tilshunos Q.Ramazonov, rassom B.Benkov, etnograf I.G.Potapova, rassom Sh.Gumarov, ilmiy xodim B.Rahmonov, aspirant-folklorshunos B.Karimov, aspirant-etnograf S.Salimov kabilar ishtirok etishdi. Xorazm ekspeditsiyasi paytida Bola baxshi Abdullayev, Qurbon sozchi, Ahmad baxshi Matnazar o'g'li, Xo'jayor Voiz o'g'li, Xonimjon xalfa, Bibi shoira kabi ajoyib xalq san'atkorlari aniqlandi.

1931-yilning oxirida Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish instituti tashkil etilishi bilan Etnografiya, folklor va arxeologiya kabineti Etnografiya sektoriga aylantirildi va unga H.T.Zarifov mudir etib tayinlandi (1931-1933). Etnografiya sektori 1925-1930-yillarda to'plangan folklor materiallarini Samarqanddan Toshkentga olib kelish ishlari tashkil etildi. 1932-yilda Ohangaron va Chirchiq vohalariga hamda Farg'ona vodiysiga ekspeditsiyalar uyushtirildi.

Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutining filologik tuzilmalari asosida Til va adabiyot ilmiy-tekshirish instituti tashkil etilishi bilan Etnografiya sektori Folklor seksiyasiga (keyinchalik sektor) aylantirildi. Unga turli yillarda H.T.Zarifov (1934-1938), M.Afzalov (1938-1940), B.Karimov (1940-1941) kabi olimlar rahbarlik qildilar. Xuddi shu davrdan boshlab folklor materiallarini qaytadan hisobga olish va sistemalashtirish boshlandi. Natijada hozirgi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxiviga asos solindi (1934). 1935 va 1937-yillarda H.Zarifov rahbarligida Farg'ona vodiysiga ikkita folklor ekspeditsiyasi uyushtirildi, respublikamizning turli tumanlariga ilmiy safarga yuborish ishlari yo'lga qo'yildi. Bu yillarda Islom shoir Nazar o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Bo'ri Sodiq o'g'li, Usmon Mamatqul o'g'li, Melash baxshi Ermat o'g'li kabi dostonchilar aniqlandi.

1942-1944-yillarda Folklor sektoriga akademik V.M.Jirmunskiy rahbarlik qildi. Bu yillarda o'zbek folklori materiallarini rus tiliga tarjima qilishga alohida e'tibor qaratildi. V.M.Jirmunskiy bilan H.T.Zarifov hamkorligida "O'zbek xalq qahramonlik eposi" monografiyasi yaratildi.

Folklor sektorini 1944-yilning avgustidan 1952-yilning mart oyigacha taniqli folklorshunos M.Afzalov boshqardi. 1945-yilda SHerobod, 1946-yilda Jizzax folklor ekspeditsiyalari (ekspeditsiya rahbari H.Zarifov) uyushtirildi. M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainovalar turli tumanlarda folklor to'plash bilan shug'ullandilar. Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Yusuf O'tagan o'g'li, Umir shoir Safarov kabi xalq dostonchilari aniqlandi.

1952-1955-yillarda Folklor sektori Til va adabiyot institutining Mumtoz adabiyot sektori tarkibida faoliyat yurgizdi. 1956-yilda Folklor sektori qayta tiklandi. Unga H.T.Zarifov (1956-1965, 1967-1972), M.Afzalov (1965-1967, 1972-1973), T.Mirzayev (1973-1978) kabi olimlar rahbarlik qildilar. Turli yillarda

Folklor sektorida Y.Jo‘rayev, M.Murodov, T.Ochilov, F.Sultonova, Sh.Xo‘jayeva, T.Ashurov, K.Imomov, S.Qosimov, M.Mirzayeva, A.Abdusamedov, F.Udaydullayev, F.Yo‘ldosheva, N.Saburov, keyinroq S.Sodiqov, Sh.Shorahmedov, R.Otayev, S.Azizova, A.Musaqulov, B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, M.Jo‘rayev, U.Jumanazarov, M.Abdurahimov, A.Bozorov, S.G‘oyibov, M.Madrahimova, R.Jumaniyozov, X.Xolova, S.Xolmirzayeva, M.Yoqubbekova va boshqalar xizmat qildilar.

Folklori to‘plash va nashr etish ishlari kengayganligi munosabati bilan 1971-yilning oktabrida O‘zR FA Til va adabiyot institutida Xalq ijodi materiallarini to‘plash, sistemalashtirish va nashr etish nomi bilan yangi sektor ochildi. Unga T.Mirzayev (1971-1973), S.Qosimov (1973-1978) rahbarlik qildilar. 1978-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining yangi tarkibi tasdiqlanishi munosabati bilan har ikki sektor birlashtirilib, Folklor bo‘limiga aylantirildi. Bo‘limga 1978-2002-yillarda filologiya fanlari doktori, professor To‘ra Mirzayev boshchilik qildi. 2003-yildan boshlab esa, uni filologiya fanlari doktori, professor Mamatqul Jo‘rayev boshqarmoqda.

Folklor bo‘limida o‘zbek xalq dostonlari, ertaklari, qo‘shiqlari, maqol va topishqlarining ko‘plab alohida nashrlari, 37 jildidan iborat “O‘zbek xalq ijodi” (1964-1990), “O‘zbek xalq maqollari” ikki jildligi (1987-1988), sakkiz kitobdan iborat “O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar” (1967-1981), “O‘zbek folklori ocherklari” uch jildligi (1988-1989), “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” darsligi (1980, 1990, 2010), Ergash Jumanbulbul o‘g‘li doston va termalaridan tuzilgan “Bulbul taronalari” besh jildligi (1971-1973), rus tilidagi uch jildligi (1974, 1977), “Alpomish” dostonining akademik nashri (1999), “O‘zbek folklorshunosligi masalalari” nomli turkum tadqiqotlarning besh kitobi (2006, 2010-2011, 2015), “O‘zbek folklori tarixi” to‘rt jildligining ikki jildi (2015) kabi fundamental ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, K.Imomov, T.Ashurov, T.Mirzayev, M.Mirzayeva, F.Yo‘ldosheva, M.Jo‘rayev, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, M.Jo‘rayeva, Z.Rasulovalarning monografiya va kitoblari chop etildi. 2015-yildan Folklor bo‘limida olib borilayotgan “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o‘rganish masalalari” nomli fundamental ilmiy tadqiqot natijasida tayyorlangan “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining dastlabki 1-6-jildlari bosib chiqarildi.

Bo‘limning ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari. Istiqlol yillarida bo‘lim xodimlari quyidagi ilmiy loyihalar asosida ish olib borishdi:

1. 2007-2011-yillar. “O‘zbek folklori tarixi” 4 jildligi. Loyiha rahbari: T.Mirzayev.

Bu ilmiy loyihaning bajarilishi natijasida o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodining o‘ziga xos tabiati yoritildi, uning janrlar tarkibi tasniflandi, folklor ijrochiligi va ijodkorligining xususiyatlari o‘rganildi, folklor janrlarining tarixiy

ildizlari, genezisi, shakllanish asoslari va manbalari aniqlandi. Mazkur ilmiy loyiha doirasida katta qamrovdagi ilmiy tadqiqot ishlari bajarildi.

2. 2012-2016-yillar. “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o‘rganish masalalari” (1-35-jildlar). Loyiha rahbari: M.Jo‘rayev.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi” 1998-yil 13-yanvardagi qarori hamda 2010-yil 7-oktabrdagi “2010-2020-yillarga mo‘ljallangan nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 222-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limida bajarilayotgan mazkur fundamental ilmiy loyiha asosida “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 tomligi asar matni, notasi va izohlari bilan nashr etiladi. Natijada o‘zbek folklorining eng yaxshi namunalarini o‘z ichiga qamrab olgan mukammal jamlanmasini yaratishga erishiladi.

2015-yilning ikkinchi yarmidan e‘tiboran G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini nashr etishga kirishildi.

3. 2012-2014-yillar. “15 jildli “O‘zbek folklori va adabiyoti tapixi”ni nashrga tayyorlash va chop etish”. Loyiha rahbari: T.Mirzayev.

O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi janrlar tarkibining shakllanish tarixi va tadrijiy rivojlanish jarayonini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tahrir qilib, nashrga tayyorlandi. “O‘zbek folklori tarixi”ning birinchi va ikkinchi jildlari 2015-yilda nashr etildi.

4. 2015-2017-yillar. “O‘zbek folklorshunosligi tarixi”. Loyiha rahbari: Sh.Turdimov.

Ushbu ilmiy loyiha o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodini to‘plash, nashr etish va o‘rganish bo‘yicha hozirga qadar amalga oshirilgan ishlarni tadqiq etish asnosida folklorshunoslik tarixini yaratishni ko‘zda tutadi.

Bo‘limning xodimlar tarkibi. Hozirgi kunda Folklor bo‘limida O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, filologiya fanlari doktori, professor Mamatqul Jo‘rayev (bo‘lim boshlig‘i), O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor To‘ra Mirzayev, O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori Shomirza Turdimov, filologiya fanlari doktori Jabbor Eshonqulov, filologiya fanlari nomzodlari Manzura Narziqulova, Latifa Xudoyqulova, Zebiniso Rasulova, kichik ilmiy xodimlar Barno Mirzayeva, Munis Jo‘rayeva, Zuhra Yo‘ldosheva, Shahodatbonu Imomnazarova, Dilrabo Igamuradovlardan iborat jamoa mehnat qilmoqda.

Til bilish darajasi: bo‘lim xodimlari orasida ingliz, rus, nemis, turk tillarini biladigan mutaxassislar mavjud.

O‘quv-metodik va tashkiliy ishlar: bo‘lim xodimlari turli davrlarda Toshkent davlat madaniyat instituti (T.Mirzayev, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov), O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti (J.Eshonqulov), Toshkent viloyat davlat pedagogika instituti (B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev), Navoiy davlat pedagogika instituti (M.Jo‘rayev), Jizzax davlat pedagogika instituti (M.Jo‘rayev), Buxoro davlat universiteti (T.Mirzayev, M.Jo‘rayev), Toshkent davlat agrar universiteti (A.Musaqulov), Toshkent avtomobil-yo‘llari instituti (L.Xudoyqulova), Avloniy nomidagi o‘qituvchilar va pedagog xodimlar Respublika malaka ishirish instituti, Toshkent shahar o‘qituvchilar va pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (M.Yoqubbekova) kabi oliy o‘quv yurtlarida dars mashg‘ulotlari olib borishgan. Xususan, Toshkent davlat madaniyat instituti “Xalq badiiy ijodiyoti” kafedrasining bakalavr talabalariga “Folklor va etnografiya”, “Xalq badiiy ijodi” (T.Mirzayev), magistratura bosqichidagi talabalarga “Badihago‘ylik san‘ati” (T.Mirzayev), “Folklorshunoslikka kirish”, “Folklorshunoslik asoslari”, “Folklor san‘ati tarixi” (M.Jo‘rayev), “Nazariy va amaliy poetika”, “Markaziy Osiyo xalqlari folklor va etnografiyasi” (SH.Turdimov), “Ilmiy-ijodiy ish” (M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov) kabi fanlarni bo‘lim xodimlari o‘qitishgan. Shuningdek, bo‘lim xodimlari turli yillarda davlat attestatsiya komissiyasi ishiga raislik qilishgan, talabalarning bitiruv-malakaviy ishlari va magistrlik dissertalariga rahbarlik qilishgan, taqrizchi bo‘lishgan.

Folklor bo‘limi xodimlari tomonidan oliy o‘quv yurtlari filologiya fakulteti talabalari uchun yozilgan “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” darsligi (T.Mirzayev, O.Sobirov, K.Imomov, H.Razzoqov, 1980-yil; T.Mirzayev, O.Safarov, K.Imomov, B.Sarimsoqov, 1990-yil), “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” fanidan darslik-majmua (T.Mirzayev, O.Safarov, D.O‘rayeva. 2008-yil), “O‘zbek mavsumiy marosim folklori” (M.Jo‘rayev, 2008-yil), “Folklorshunoslik asoslari” (M.Jo‘rayev, 2009-yil) o‘quv qo‘llanmalari, Toshkent davlat madaniyat instituti hamda hozirgi O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti talabalari uchun “Folklorshunoslik asoslari” (M.Jo‘rayev, 2008-yil), “Folklorshunoslikka kirish” (M.Jo‘rayev, 2008-yil) kabi o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan.

Bo‘lim xodimlari 2001-yildan e‘tiboran mamlakatimiz miqyosida o‘tkazilgan quyidagi madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda, shu jumladan, folklor ijrochilarining ko‘rik-tanlovlari va festivallarida hakamlar hay‘ati raisi yoki hakamlar hay‘ati a‘zosi sifatida faol ishtirok etishgan:

– Yosh baxshi-shoir va jirovlarning 2-an‘anaviy ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, Kitob shahri, 2001-yil, 5-7-may);

– Markaziy Osiyo respublikalarining baxshi-shoir va oqinlari ishtirokida o‘tkazilgan “Baxshi-shoir va oqinlarning II-an‘anaviy xalqaro ko‘rik-festivali” (M.Jo‘rayev, Termiz shahri, 2001-yil, 22-25-may);

– Askiyachi va qiziqchilarning Respublika ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Qo‘qon shahri, 2002-yil, 16-18-may);

- “Boysun bahori” ochiq folklor festivali doirasida o‘tkazilgan “Baxshi-shoir va oqinlar xalqaro ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Boysun shahri, 2002-yil, 24-26-may);
- Alla ijrochilarining O‘zbekiston xalq artisti Habibi Oxunova xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan YI-Respublika ko‘rik tanlovi (M.Jo‘rayev, Namangan shahri, 2003-yil, 14-16-aprel);
- Markaziy Osiyo baxshi-shoirlar, jirovlar, xalfa va oqinlarining III-xalqaro ko‘rik tanlovi (M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, Termiz shahri, 2003-yil, 12-14-may);
- “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali folklor-etnografik jamoalar va baxshi-shoirlar blokining ilmiy eksperti (M.Jo‘rayev, Boysun shahri, 2003-yil);
- Askiyachi va qiziqchilarning oltinchi Respublika ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Qo‘qon shahri, 2004-yil, 20-24-aprel);
- O‘lan ijrochilarining regional ko‘rigi (M.Jo‘rayev, Toshkent shahri, 2004-yil, 17-aprel);
- Folklor-etnografik jamoalar mintaqaviy ko‘rik-festivali (M.Jo‘rayev, Andijon shahri, 2005-yil, 26-28-aprel);
- Baxshi-shoirlar va oqinlarning xalqaro ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Termiz shahri, 2005-yil, 16-17-may);
- “Boysun bahori” xalqaro ochiq folklor festivali eksperti (M.Jo‘rayev, Boysun shahri, 2005-yil, 18-21-may);
- Askiyachi va qiziqchilarning yettinchi Respublika ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Xonobod shahri, 2006-yil, 2-5-may);
- Talaba-yoshlar folklor jamoalari Respublika ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Toshkent shahri, 2006-yil, 23-24-iyul);
- Alla ijrochilarining yettinchi an‘naviy Respublika ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Farg‘ona shahri, 2006-yil, 11-14 senyabr);
- Havaskor ijrochilar va ijodiy jamoalar ishtirokida o‘tkazilgan “Diyor ohanglari” Respublika telefestivali (M.Jo‘rayev, Toshkent shahri, 2006-yil, 29-sentabr – 5-oktabr);
- Lapar va o‘lan ijrochilarining ikkinchi Respublika ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Namangan shahri, 2007-yil, 3-6-aprel);
- O‘lan va lapar ijrochilari Respublika festivali (M.Jo‘rayev, Jizzax viloyati, Zomin shahri, 2009-yil, 22-23-iyul);
- Folklor-etnografik jamoalarining oltinchi Respublika ko‘rik-festivali (M.Jo‘rayev, Samarqand shahri, 2007-yil, 19-23-may);

– O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist R.Mazohidova xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan Folklor-etnografik jamoalarining Respublika ko‘rik-tanlovi (M.Jo‘rayev, Qo‘qon shahri, 2009-yil 11-13-iyun);

– O‘lan va lapar ijrochilari Respublika festivali (M.Jo‘rayev, Jizzax viloyatining Zomin tumani, 2009-yil, 22-23-iyul);

– Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Onalar kuylaganda” mavzuidagi alla ijrochilarining Respublika ko‘rik-tanlovi (M.Narziqulova, 2009-yil. 12-sentabr).

Kadrlar potentsiali: Bo‘lim xodimlari folklorshunoslik fani rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

– bo‘lim xodimlari Janubiy Koreya, Rossiya, Xitoy xalq respublikasi, Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda o‘tkazilgan ilmiy konferensiyalarda ishtirok etishgan (T.Mirzayev, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, M.Jo‘rayeva, L.Xudoyqulova va boshq.).

– bo‘lim xodimlari xorijiy mamlakatlarning ilmiy markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy loyihalarda ham faol ishtirok etishgan. Xususan, Turkiyada chop ettirilayotgan “Turkiy xalqlar dostonlari” loyihasida “Oychinor”, “Erali bilan SHerali”, “Malika ayyor” kabi dostonlar chop ettirilgan (T.Mirzayev, J.Eshonqulov).

– xorijiy mamlakatlarning folklorshunos olimlari bo‘lim xodimlari rahbarligi ostida doktorlik dissertatsiyalari ustida ish olib borishmoqda. 2014-yil 17-dekabr kuni Janubiy Koreyaning Seul shahridagi Dongkuk xotin-qizlar universiteti professori O Ingyong Folklor bo‘limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor M.Jo‘rayev ilmiy maslahatchiligida “Alpomish” va “Jumo‘ng” dostonlarining qiyosiy tipologiyasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.